

“BOG‘ ZARARKUNANDALARI VA ULARGA QARSHI KURASH USULLARI”

Fardu biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Sh.Q.Yuldasheva

Fradu biologiya magistrant

R.Z.Saydaliyeva

Annotatsiya: Bog‘ zarakunandalarining hayotiy jarayonlariga oid ma’lumotlar asosida, kemiruvchi va so‘ruvchi zararkunandalarning mavsumiy hayotiy jarayonlarini o‘ziga xos xususiyatlarini taxlil etish bu boradagi ayrim nazariy muammolar yechilishiga sabab bo‘lishi mumkin. Mevali bog‘larda zararkunandalar entomofaglarining faoliyatini o‘rganilishi, ularning foydalilik darajalarini tahlil etish, hozirda keng qo‘llanilayotgan kimyoviy kurash choralaridan qisman voz kechish ekologik toza – mevalar yetishtirish, inson sog‘ligi va o‘rtacha umrini ortishi kabi muammolarni qisman hal etishi mumkin.

Kalit so‘zlar: kemiruvchi, qaldirg‘och, zararkunanda, entomofag, smorodina, parus-mojor

Kirish. Qishloq xo‘jalik tarixidan ham o‘simliklarni himoya qilishda qushlarning qanday foyda mayda sayroqi qushlar-bulbullar, qaldirg‘ochlar, chitakklar va boshqa ko‘pgina qushlar bahordan, yozgacha kun chiqishdan kun botguncha qadar hasharot ovlashadi, inson qo‘li yetolmagan qismlardagi zararkunandalrri ovlab ko‘p foyda beradi. Shu sababli foydali qushlarni bog‘larga jalb etish kerak. Shuning uchun bog‘ning qirg‘oq qismlariga smorodina, namatak kabi butalarni ekib, qushlar uchun yashirin, joylar tashkillash zarur. Qushlarni sovuq va ochlik davrlarida qo‘shimcha oziqlantirish kerak.

Katta chittak-*Parus major* Briss. Keng tarqalgan o'troq qush, tashqi qoplami juda rangli. Tanasining yuqori tomoni tiniq yashil tovlanuvchi patli, ostki qismi sarg'ish. Boshning yuqori qismi, bo'yin qismi qora. Jig'ildondan ko'krakning o'rta qismiga va qorin ga qora yo'lakcha o'tgan. Boshning yon tomonida va bo'ynida oq dog'lari mavjud. Oyoqlari kulrang, tumshug'i to'q qo'ng'ir aholiga yaqin yerlarda, bog'larda yashaydi. Uyasini yashirin xolatda daraxt kovaklariga qurishadi. Sun'iy kovak va 4-4,2 sm diametrli tirqishga ega bo'lgan turli hil yashiliklarga ham oson o'rganadi. Sun'iy uylarni 2-3m bo'lganda qurish kerak. Chittak asosan yoz davomida 2 marta jo'ja ochadi. Uyasini mox, quruq xas-xashak; turli xil ot qillari, pat-parlardan iborat. Tuxumlar soni 6-14 tagacha bo'ladi. Birinchi tuxum qo'yish aprel oxiridan iyun oyigacha davom etadi. Bolalarini asosan hasharotlar bilan boqadi. Bir kunda o'z vazniga teng miqdorda hasharotlarni iste'mol qiladi. Yozda qurtlar, kapalaklar, qo'ng'izlar, pashshalar, shira xatto kapalaklarning tukli qurtlari bilan ham oziqlanadi. Aynan shu qurtni ko'pchilik qushlar iste'mol qilmaydi. Qishga o'z uyasiga turli xil mevalar, do'lana, namataklarni yig'adi. Chittaklar boshqa in qurgach, u yerdagi barcha bargemiruvchi zararkunandalarni yo'qotadi. Qishqi davrda bu davrda qushlarni semichka, oshqovoq urug'i bilan boqish mumkin. Chittaklari bir kunda 300-350 marta bolalari uchun oziqa olib keladi. Erkak forma bolalari boqishda kam ro'l o'ynaydi.

Katta rangdor qizilishton-*Dendrocopus major* Coch. Chiroyli rangdor yirik qush. Ranglari ichida oq va qora rang ko'p qatnashadi. Boshining yuqri qismi va bo'yni yelka tomoni va dumining yuqor qismi ko'kish-qora tovlanuvchi rangli, yelka qismi, bo'yinning yon qismi, qorin qismi kir oqish rangli. Dum osti tinniq qizil. Parlari qora oq dog'li, yoyiq holda kuzatilsa 5 qator ko'ndalang yo'l ko'rinadi. Ko'zlari qo'ng'ir qizil, tumshug'i ko'kish qora, oyoqlari to'q qo'ng'ir. Erkak va urg'ochi formalar bir-biridan farq qiladi. Yosh jo'jalar rangi voyaga yetgan formalar bilan bir hil, lekin ularni peshonasida qizil dog'i bor. Dumi o'rtacha uzunlikda, juda qattiq patrlardan iborat bo'lib, qushlar uchun tayanch vazifasini o'taydi. Dum

tayanch bo'lish davomida 10 mm qisqarib, sekin-asta linkalash davrini o'taydi. Umumiy dum uzunligi 100 mm. Ularning tana uzunligi 23-26 sm, massasi 100 gr. Mart oyidan boshlab ular xararkatchan bo'lib qoladi. Ularni taqqilatishi kuzatiladi. Bog'ning o'rta qismiga qurilgan inlari qurigan xas-xashaklar, cho'plardan tuziladi. Agar kovak bo'lsa, kovak 28-35 sm, chiqish teshigi 5-5,6 sm. IV-V oylarida tuxum qo'yadi. 5-7 tinniqlik yaltiroq tuxum qo'yadi. Tuxumni to'g'ridan-to'g'ri yog'och qirindisiga qo'yadi. Tuxumlarini navbat bilan bosishadi. Jo'jalari ko'r, patsiz tug'iladi. Dastlabki vaqtda ular jim o'tirishadi, rivojlana boshlagach qushlar tinimsiz baqirib, oziqa talab etishadi. Polaponlar ovozi 80-100 m eshitiladi, bemalol eshitish mumkin. Polponlar juda ochofat bo'lib har 2-4 minut ovqat talab qilishadi. Ota-onalar kunda inlariga 300 marta oziq tashishadi. 1 juft qizilishton o'z bolalarini boqish uchun 10 gektar bog'lagi zararkunandalarni qirib foyda keltiradi. Polaponlar uchirma bo'lgandan keyin ham, ota-onalar ularni 1 oygacha boqib, birga yashashadi. Qizilishtonlar yaxshi uchishiga qaramasdan, daraxtda sudralib xarakatlanishini afzal biladi. Xatto xavf sezganda ham u uchishga shoshilmaydi. Xayotini ko'p davrini oziqa-axtarib o'tkazadi. Daraxt tanasida qizilishton spiralsimon xararkatlanib yo'g'on shoxlari ham diqqat bilan kuzatadi. Agar po'stloq ostida hasharotlarni topsa taqqilatadi. Kuch bilan po'stloqqa urish orqali ular tirqishchalar hosil qilib, o'zining uzun tili bilan hasharot lichinkalari va hasharotlarni yopishtirib oladi. Ko'p miqdorda ular chumolilarni yo'qotadi. Qushlar jig'ildoni kuzatilganda 300-500 cha chumolilar topilgan. Ular ko'pincha po'stloq po'stidagi turli hil qo'ng'izlarni asosan po'stloqxo'r va mo'ylovlarni, shu bilan birga uzunburgachalar va bargkemiruvchilarni iste'mol qiladi. Kuzda qizilishtonlar oziqasi o'zgaradi, ular turli hil ochiq urug'liklar (qarag'ay) guddalarini yorib urug'larini yeydi. Bund temirchilar faoliyati natijasida, daraxt ostida 5-7000 g'uddalar to'planadi. Baxor oyidan boshlab qishlovdan chiqqan hasharotlar bilan oziqlanadi. Daraxtlarda shira yurishi bilan qushlar harakati boshlanadi. Inlaridan bir marta foydalanishadi. Bog'dorchilik uchun eng xavfli bo'lgan ksilofag-hasharotlarni (ildizxo'rlar,

mo'ylovxo'rlar) bu qushlar yo'qotadi. Qizilishtonlar ko'pincha xilma-xil daraxtlardan tashkil topgan bog'larni xush ko'radi.

Krapivnik-*Troglodytes troglodytes*. Mayda qushchalar, uzunligi 100-110 mm, og'irligi 10-15 g, tumshug'i uzun, to'gri, oxirgi qismi o'tkirlashgan. Qanotlari kalta, yumaloqlashgan, dumi to'g'ri kalta va keng. Oyoqlari kalta, kuchli uzun barmoqli, o'tkir tirnoqli bo'ladi. Parlari qo'yuq, yumshoq. Erkak va urg'ochilarini bir-biridan kam farq qiladi. Yilda bir marta tullaydi. Ko'p o'tinlar bosilgan yoki changal butalar ichida yashashadi in qurishadi. Inlarini kirish qismini yashirib qo'yishadi. 2-3 tagacha tuxum qo'yadi. O'troq qush hisoblanadi. Asosan hasharotlar va o'rgamchaklar bilan oziqlanishadi. Kuzgi-qishki davrda turli hil urug'lar bilan oziqlanishadi. Krapivniklar poligam qush hisoblanadi. Polaponlarini boqishda asosan erkak forma ishtirok etadi. Bir soatda ota-ona formalar 10-15 marta iniga oziqa tashiydi. 15-16 kunda ular inidan uchirma bo'lishadi. Havo aynigan vaqtda inida o'tiradi. Ular oziqasi o'rgimchaklar, xam harakatchan qandalalar, qo'ng'izlar, qurtlar, kapalak va shiralar tashkil etadi.

Cug'urchuq-*Sturnus vulgaris* L. Bahor qushlaridan bo'lib, sevimli qush hisoblanadi. Unchalik katta bo'lmagan, uzunligi 230 mm, og'irligi 75 gr, bo'yni kalta. Tanaga nisbatan to'rtbarmoqli oyoqlari uzun yo'g'on va kuchli, bukilgan tirnoqlarga ega. Tumshug'i ingichka yo'g'on va uzun, biroz pasga bukilgan. Dumi kalta, qanotlari uzun. Tullagandan keyin metall yaltiroqligiga ega qora rangli. Bosh, tomoq atrofi binafsharang, yelkasi yashil, qorin qismi siyohrang-ko'k. Uchib ketuvchi qush hisoblanadi. Dastlabki holatda qushlar gala bo'lib turishadi. Keyin in qurish uchun kerakli maydonni axtarishadi. Oziqa miqdoriga qarab qushlar yakka yoki kolloniya xolatda in qurishadi. Tuxumlari 5-6. Kun davomida iniga 300 marta oziq tashishadi. 15-17 kunda polaponlari uchirma bo'ladi. Urg'ochi tuxum bosib yotganda erkak forma uni oziqlantiradi. Oziqa axtarib qushlar katta qadamlar bilan, tumshug'ini har yerga tiqib yuradi. Ular turli hil qo'ng'izlar ayniqsa may va iyun xrushi, qoratanlilar, jujalets qo'ng'izlari, uzunburunchalar, chertmakchi qo'ng'izlar,

tunlam qutlari, turli hil to'g'riqanotlilar bilan oziqlanishadi. Baxorda maydonlar yer haydalayotganda ko'plab ko'rish mumkin.

Qushlar turli hil mevalarni yeb zarar keltirsada, ularni cheksiz hasharotlarni tutib yeyishlari katta foyda ekanligini, hisob-kitob orqali yaqqol ko'rish mumkin. Masalan: mayna har 3-5 minutda 1 donadan hasharot tutadi, bir oyda 600-700 ta, bir mavsumda 1800-2250 ta zararli hasharotlarni yo'qotadi. Bir kunda 26 ta gilos yeb zarar keltirsa, o'rtacha 150-160 gr, bir oyda 4,5 kg, bir mavsumda 13,5 gilosni zararlashi mumkin. O'rtacha 13,5kg gilos X 3 mingdan 40,500 so'm bo'lsa, bir mavsumdagi 180-2250 ta hasharot hech bo'lmaganda bir o'simlik organi, mevani zararlashi yuqoridagi zarardan kuchli bo'lishini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Архангельский П.П. К биологии персиковой тли *Pterochloroides persicae* Chol. // Изд. Туркестанск. энтомол. станции. Ташкент, 1917.
2. Мухамедиев А.А. Тли Ферганской долины. - 1979. -Т.: Фан. -80 с.
3. Беклемишев В.Н. Биоценологические основы сравнительной паразитологии. М.: Наука, 1970. - 502 С.
4. Белосельская З.Г. Вредители парковых насаждений нечерноземной полосы и меры борьбы с ними. М.; JL: Изд-во АН СССР, 1955. - 206 с.
5. Bogdanov O.P. O'zbekistonning hayvonot dunyosi. -Toshkent: O'qituvchi. 1969.
6. Борхсениус Н.С. Практический определитель щитовки (*Coccoidea*) культурных растений и лесных пород СССР. Изд. АН СССР. -М-Л. 1963.
7. Булухто Н.П., Короткова А.А., Миллер И.Д. Видовой состав и биоценологические связи насекомых и клещей на смородине юга Центрального Нечерноземья. Деп. в ВИНТИ, пер. №1158-В91- Тула, 1991.-19 С.
8. Голуб В.Б., Цуриков М.Н., Прокин А.А. Коллекция насекомых. -М., 2012. - 339 с.
9. Гершензон З. С. Сем. Yponomeutidae горностаевые моли. - Определитель насекомых европейской части СССР. Чешуекрылые. - Л.: Наука, 1981. - т.4, ч. 2. - С. 331.
10. Давлетшина А.Г. Тли рода *Aphis* L. фауны Узбекистана. -Ташкент: Наука, 1964. -134 с.
11. Добровольский Б.В. Фенология насекомых. М.: Высшая школа, 1969. -232 С.
12. Елизарова А.Н. и др. Червец комстока и меры борьбы с ним. - Ташкент, 1964.